

ZOOFRAZEMALARNI NEMIS TILIDAN O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH TAMOYILLARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.10335034>

Omadjon AZAMOV,

PhD, ADChTI katta o‘qituvchisi,

Tel: +998999077941, e-Mail: kamronmirzo79@mail.ru

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada nemis va o‘zbek tillaridagi zoonim komponentli frazeologik birliklar va ularning tarjima masalalari borasida so‘z ketarkan, unda zoofrazemalarni tarjima qilishda ishlab chiqilgan asosiy tamoyillar ikki tilda keltirilgan misollar asosida ko‘rsatib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** zoofrazema, komponent, tamoyil, muqobillik, equivalent, daraja, lisoniy, leksema, frazema, til elementlari.*

***Abstract.** This article discusses phraseological units with zoonym components in German and Uzbek languages and their translation issues, and the main principles developed in the translation of zoophrases are shown on the basis of examples given in the two languages.*

***Key words:** zoophrase, component, principle, alternative, equivalent, level, linguistic, lexeme, phrase, language elements.*

***Аннотация.** В данной статье рассматриваются фразеологизмы с зоонимическими компонентами в немецком и узбекском языках и вопросы их перевода, а также показаны основные принципы, разработанные при переводе зоофраз, на основе примеров, приведенных на двух языках.*

***Ключевые слова:** зоофраз, компонент, принцип, альтернатива, эквивалент, уровень, лингвистический, лексема, словосочетание, элементы языка.*

Har qanday tarjima lug‘atining ahamiyati, qiymati tillar orasidagi ekvivalentlik munosabatini qay darajada amalga oshirilganligi bilan belgilanadi. Til unsurlari o‘rtasidagi muqobillik esa uzoq tarixga ega bo‘lgan amaliy tarjimalar asosida o‘rnatiladi. Lekin, nemis va o‘zbek adabiy va ilmiy sohalaridagi asarlarni bevosita, to‘g‘ridan-to‘g‘ri nemis tilidan o‘zbek tiliga, o‘zbek tilidan nemis tiliga tarjimalari yo‘qligi hisobida bo‘lganligi sababi ushbu tillar elementlari o‘rtasidagi muqobillikni o‘rnatish bir qator qiyinchiliklar tug‘diradi.

Bu degani tillar o‘rtasida ekvivalentlilik munosabatlarini o‘rnatish mumkin emas degani emas. Chunki, olamning lisoniy manazarasini ifodalashdi barcha

xalqlarda qator umumiylik mavjudligi barchamiz uchun oydin va ravshan. Bulardan tashqari bir qator leksikografik manabaalar boʻlib, ular turkiy tillar oʻrtasida tuzilgan, ulardagi manbalarni oʻzaro qiyoslash orqali ham ekvivalentlik munosabatlarini oʻrnatish mumkin. Masalan, rus va nemis tillari asosida tuzilgan lugʻatdan nemis va oʻzbek tili lugʻatlari tuzishda foydalanish mumkin. Ushbu holatda nemis va rus tillari elementlari oʻzaro muqobilligi koʻplab manbalar asosida oʻrnatilgan. Rus va oʻzbek tillari oʻrtasida tajrima manbalari ham oz emas. Natijada, nemis va oʻzbek tillari elementlarining muqobilligini oʻrnatishda yuqoridagi uslubdan foydalanish talab etiladi. Demak, nemis tili frazemasini rus tilidagi ekvivalentini, oʻzbek tilidagi frazema bilan qiyoslash orqali nemis hamda oʻzbek frazemalarini muqobillik darajasi aniqlanishi mumkin. Ushbu oʻrinda rus tili vositachi til vazifasini bajaradi.

Zoofra

zemalarni tarjimasiga qaraganda deyarli murakkablik tugʻdirmaydi. Chunki, dunyoning asosiy hayvonot dunyosi barcha mamlakatlarda mavjud boʻlib, hayvonlarning feʼl-atvorlari xalqlar ongida umumiy taʼsurotlarga ega. Lekin ushbu umumiylik qatorida qator hayvonlarni turli xususiyatlari turli xalqlarda turlicha idrok etilganligi sababli zoofrazemalar maʼno koʻllamida farqlarni ham koʻrishimiz mumkin. Bular qatoriga maʼlum makondagina yashovchi hayvonot dunyosini oʻziga xos xususiyatlarini alohida taʼkidlash lozim.

Maʼlum bir makonda yashovchi hayvonlar bilan bogʻliq zoofrazemalar maʼnosi boshqa xalq tilida mavjud boʻlmasligi mumkin. Bu kabi zoofrazemalarni maʼno qoʻlami asosida izohi talab etiladi. Yuqoridagi fikr-mulohazadan kelib chiqqan holda nemis tili zoofrazemalarini ikki katta guruhga aljratoririshimiz mumkin. Birinchi guruhda, nemis tilidagi zoofrazemalarni oʻzbek tilida evivalentga ega boʻlganlari, ikkinchi guruhga esa ekvivalenti mavjud boʻlmagan zoofrazemalar beriladi.

Ekvivalenti mavjud boʻlgan zoofrazemalar tarjimasiga:

Bir qator nemis tili zoofrazemalari oʻzlarining komponent tarkibi, frazemaning maʼnosi bilan oʻzbek tilida ham oʻxshash tarkib hamda frazeologik maʼnoga ega boʻlgan frazemalar orqali tarjima qilinadi. Ushbu holatni professor Umarxodjaev M. tomonidan tavsiya etilgan ramziy belgilar orqali ifodalashimiz mumkin

L1 (nemis tili) L2 (oʻzbek tili)

$A+B \neq AB = A + B \neq AB$

Masalan:

Nemis tilida: “*Wie Hund und Katze leben*”

Oʻzbek tilida: “*It mushuk boʻlib yashamoq*”

Nemis tilida: “*keiner Fliege etwas zu tun haben*”

Oʻzbek tilida: “*pashshaga ham ozor bermaslik*”

Ikkala tildagi zoofrazemalar “Hund = it va Katze = mushuk” ot soʻzla qatori “leben = yashamoq” feʼllari ham bir xil leksik maʼnoga ega boʻlgan holda, ularning frazeologik maʼnosi ham bir xil, yaʼni “sich ständig streiten, ganz feindselig miteinander leben = bir-biri bilan doimo urush holatida, murosasizlikda, dushmanlikda yashamoq”. Quyidagi misollarga eʼtibor qaratsak:

- *en wie ein Schwein* } “Choʻchqa” leksemasi asosida
- “choʻchqaday mast”
- *“jemanden wie einen Hund behandeln”* } “It” leksemasi asosida
- *dur huddi itga qilganday* } “kimga
- munosabatda boʻlmoq”
- *Hasenherz haben* } “Quyon” leksemasi asosida
- “quyonyurakday boʻlmoq”
- *“Stolz wie ein Hahn”* } “Xoʻroz” leksemasi asosida
- “xoʻrozday magʻrur”
- *“ein schlauen Fuchs”* } “Tulki” leksemasi asosida:
- “ayyor tulki”.

Quyidagi zoofrazemalariga eʼtibor bering: “Zwei Fliegen mit einer Klappe schlagen” zoofrazemasi (s.s: bir urishda ikki pashshani urmoq) “einen doppeltet Zweck durch ein Mittel erreichen” maʼnosida qoʻllanib, oʻzbek tilidagi “bir oʻq bilan ikki quyonni otmoq” zoofrazemasi orqali tarjima qilinadi. Nemis tilidagi zoonim “fliegen” oʻzbek tilidaga “Quyon” zoonimi orqali obrazlashtirilgan:

Nemis tilida: *“Wie zwei Hähne aufeinander losgehen”*

Oʻzbek tilida: *“Huddi itlar kabi bir - birga tashlanmoq”*.

Nemis tilida: *“bekannt sein wie ein bunter Hund”*.

Oʻzbek tilida: *“Otning qashqasidek mashhur boʻlmoq”*.

Nemis tilida: *“den schlafenden Löwen aufwecken”*.

Oʻzbek tilida: *“Ari iniga choʻp tiqmoq”*.

Ushbu qiyoslangan zoofrazemalar turli hayvonlar obrazlarini metaforik koʻchimi orqali shakllanishiga qaramasdan: nemis tilida: “Hähne-xoʻroz”, “Hund-it”, “Löwen-sher”, “Luchs-silovsin”; oʻzbek tilida: “it”, “ot”, “arslon”, “lochin”

zoonimlari orqali obrazli berilgan bo'lsada, ularning frazeologik ma'nolari bir - biriga muqobil.

Tarjimashunoslik amaliyotida “analoglar” termini bilan nomlanadigan frazemalarning ko'pchilikni tashkil qiladi.

Biron bir tilning leksik yoki frazeologik birliklariga ikkinchi tilda o'xshash birliklarni mavjudligi ushbu tillarda bir - biriga mos keladigan analoglarni tashkil qiladi. Analogik birliklar har xil til vakilining geografik joylashuvi va hududning hayvonot dunyosi bilan bog'liq. Ba'zi hududlarda ma'lum hayvonlar mavjud bo'lsa, boshqalari mavjud bo'lmasligi mumkin. Lekin, shunga qaramay o'sha zoonimlar asosida o'xshash frazeologik ma'nolar shakllanishi mumkin. Masalan: Nemis tilida: “den Bock zum Gärtner machen” (s.s: takani bog'bon qilib qo'yimoq) frazemasining o'zbek tilidagi analogi “qo'yni bo'riga topshirmoq” orqali tarjima qilish mumkin.

Nemis frazemasining ma'nosi “Gärtner”-bog'bon, “Bock”-taka zoonimlari orqali shakllanganligiga qaramay o'zbek tildagi “ko'y”, “bo'ri” zoonimlarining qo'shilishi orqali shakllangan frazeologik ma'no orqali tarjima qilinishi mumkin.

“O'ta ochiqmoq”, “och qolmoq” ma'nosini ifodalash maqsadida nemis tili “der Bär” - ayiq obrazli zoofrazema “einen Bärenhunger haben” (s.s: “ayiqday och qolmoq”) ishlatilsa, o'zbek tilida ushbu ma'noni “it” obrazi orqali shakllangani o'xshash zoofrazema “itday och qolmoq” bilan tarjima qilinsa mumkindir.

“der Bär” - ayiq so'zi bilan shakllangan bir qator nemischa zoofrazemalarni o'zbek tilida boshqa hayvon nomlari asosida shakllangan zoofrazemalar yordamida muqobilligi o'rgatilishi mumkin.

Masalan: Nemis tilida: “eine Bärennatur haben”

O'zbek tilida: “otday baquvvat”

Nemischa: “Bärenkräfte haben”

O'zbekcha: “Eshakday kuchli bor”

Ekvivalenti mavjud bo'lmagan zoofrazemalar tarjimasi

Olamning lisoniy manzarasini ifodalashda xalqlarning turli geografik makonga, o'zidga xos obi-havo, hayvonot olami bilan bog'liqligi o'sha xalq lug'at boyligida boshqa xalq tilida bo'lmagan iboralar shakllanishiga olib keladi. Bunday o'ziga xos iboralarni to'liq yoki qisman ekvivalent hatto analogi ham bo'lmasligi mumkin. Chunki ular yuqoridagi faktorlar bilan birga, milliy ma'rifiy, diniy urf-odat, an'analar asosida yuzaga kelgan. Ushbu o'ziga xoslik ularni tarjima qilishda qator qiyinchiliklarni tug'dirishi mumkin. Bunday holatda, qator zoofrazemalar so'zma-so'z tarjima qilib ko'rilishi lozim. Agarda so'zma-so'z tarjima qilingan zoofrazemalarni frazeologik ma'nosi o'zbek tilida ham tushunarli bo'lsa, bunday uslub o'zini oqlaydi. Bu holda so'zma-so'z tarjima orqali tarjima qilinayotgan tilning frazeologik zaxirasi boyishi mumkin.

Masalan, Nemis tilidagi: “einem geschenkten Gaul, sieht man nicht ins Maul” frazemasini soʻzma-soʻz oʻzbek tiliga tarjima qilinsa ham tushunarli boʻlsada, yaʼni, “hadya qilingan otni tishiga qaramaydilar” yoki “berganini batiga qaramaydilar” maʼnolarida qoʻllanishi mumkin.

Yoki, “ein Esel in der Löwenhaut” soʻzma-soʻz “sher terisiga kirib olgan eshak” maʼnosini “oʻzini botir qilib koʻrsatuvchi qoʻrqoq odam” maʼnosida tushunib olim mumkin.

- “*Friss mich nur nicht!*”-soʻzma-soʻz tarjimasi: “Meni yeb qoʻyma” maʼnosini “menga yomon qarama, oʻqrayma”,

- “*eine dumme Gans*”-soʻzma-soʻz tarjimasi: “ahmoq gʻoz” maʼnosi “ahmoq, esi past inson” maʼnosida,

- “*ein leichtsinniges Huhn*”-soʻzma-soʻz tarjimasi “engiltak tovuq” maʼnosi “kaltafahm, noshut ayol” maʼnosi va

- „*einen Frosch im Hals haben*“-soʻzma-soʻz tarjimasi: “tomogʻida baqasi bor” “ovozi xirillab qolmoq”

- „*Da lachen ja die Hühner!*“ soʻzma-soʻz tarjimasi “bu yerda hattoki tovuqlar ham kuladi” orqali frazema maʼnosini “kulgili”, “kulgimni qistatma”, “jinni boʻlganim yoʻq”

- „*Wenn die Hunde mit dem Schwanz bellen*“-soʻzma-soʻz tarjimasi: qachonki itlar dumi bilan vovullasa” maʼnosini “hech qachon” oʻzbek tilidagi analoglar “tuyaning dumi yerga tekkanda”, “osmondan chalpak (qizil qor) yoqqanda”, “hoʻkiz tuqqanda” kabi oʻxshash iboralar qatorida nemis tili frazemasining soʻzma-soʻz tarjimasi oʻzbek oʻquvchilariga frazeologik maʼnoni beradi

Zoofrazemalarning maʼnosini tavsif va tavsir orqaliy oʻgirish. Har qanday lugʻat tuzush jarayonida tarjimaga olinayotgan til birligi tarjima qilinayotgan tilda yuqorida koʻrsatib oʻtilgan uslublar orqali tarjima qilish imkoniyati boʻlmasligi mumkin. Bunga asosan bir xalqning oʻz mentaliteti, urf-odati, diniy dunyoqarashi zaminida shakllangan frazemalarni ikkinchi til milliy xususiyatlari bilan ifodalangan frazemalarga mos kelmasligidir. Bulardan tashqari baʼzi xollarda tillarning struktur-semantik oʻziga xosligi asosida shakllangan frazemalarni ham oʻzga tillarda muqobilini topish mushkuldir. Masalan: Nemis tilidagi “das trojannische Pferd”-soʻzma-soʻz tarjimasi oʻzbek tilida hech qanday frazeologik maʼnoga ega emas. Bundan tashqari uning oʻzbek tilida ekvivalenti ham analogi ham yoʻq. Bu kabi tarixiy frazemalarni faqat taʼriflash, tasvirlash orqaligina maʼnosini ochishimiz mumkin, yaʼni dushmanni hiyla, nayrang, yashirish qurol orqali yengish demakdir. Ushbu oʻrinda “Troya oti” haqidagi tarixiy maʼlumotlarni berish ham maqsadga muvofiqdir .

Nemis xalqida kimdur hazilomus “ichkilik ichish niyatini”ni bildirsa, “*der Fisch will schwimmen*”-soʻzma-soʻz tarjimasini: “baliq suzishni xohlaydi” zoofrazemasini ishlatadi. Bu frazemani oʻzbek tilida ekvivalenti yoʻq, soʻzma-soʻz tarjima esa erkin soʻz birikmasi sifatida qabul qilinadi. Shu sababli uni taʼriflash orqali maʼnosini yoritishimiz mumkin: “baliq bilan vino ichish kerakligi” “ichimlik ichish xohishini” bildiradi.

“*Fisch*”-baliq zoonimi bilan shakllangan yana bir oʻziga xos frazema maʼnosiga eʼtibor qarataylik: “*die Fische füttern*” frazemasini soʻzma-soʻz tarjimasini “baliqlarni ovqatlantirmoq” lekin uning frazeologik maʼnosi umuman farqli, yaʼni “dengiz kasalligidan koʻngli aynib qayt qilmoq” maʼnosini ifodalaydi.

Bu kabi frazemalarni maʼnolarini oʻgʻirish yetarlicha murakkab boʻlib, faqat turli taʼriflar va tasvirlash orqali oydinlashtirilishi mumkin. Nemis tilidagi “*der Hahn im Korb*” zoofrazemasini soʻzma-soʻz “savat ichidagi xoʻroz” deb tarjima qilib boʻlmaydi, chunki uning frazeologik maʼnosi “qizlar orasidagi yagona erkak” ni ifodalaydi. Yoki nemis tilida koʻp qoʻllaniladigan “*da liegt der Hund begraben*” frazemasini faqat “gap buyoqda ekanda”, “mana masala qaerda”, “hamma gap shunda” kabi erkin soʻz birikmalari orqali oʻgʻirishimiz mumkin.

Yuqorida taʼkidlab oʻtilgan tarjima usullaridan tashqari, lugʻat tuzish jarayonida baʼzi bir individual holatlar mavjudki, lugʻatshunos ularga alohida eʼtibor qaratishi lozim. Ulardan biri baʼzi bir zoofrazemalarning koʻp maʼnoligi. Nemis tilida “*schlau wie ein Fuchs*” zoofrazemasining birinchi maʼnosi oʻzbek tilidagi “tulkiday ayyor” frazemasining maʼnosiga muqobil boʻlsa, ikkinchisi soʻngi yillarda nemis tilida shakllangan “aqli shaxs” maʼnosi oʻzbek tilida mavjud emas. Bunday holatlarda alohida eʼtibor talab etiladi, chunki baʼzi oʻrinlarda ikkinchi maʼno oʻzbek tilida birinchi maʼno orqali ugʻirilish havfi ham mavjud.

Bundan tashqari maʼlum bir zoofrazemalarni omonimik maʼnolari boʻlishi ham mumkin. ularni bosh frazema ostida berish bilan birga alohida rim raqami bilan ajratib koʻrsatilgan holda ularning muqobil tarjimalari hamda misollar bilan dalillash talab etiladi. Masalan, „*etwas geht auf keine Kuhhaut*“ soʻzma-soʻz “nimadir sigir terisiga ham sigʻmaydi” koʻrinishida boʻlib, ikki zoomonimik maʼnoga ega:

I „*Etwas ist eine unglaubliche große Menge*“, yaʼni “nimadir behisob, dunyoga sigʻmaydi, bir dunyo”.

Jumlada kelishi: *Was er für Fehler im Diktat gemacht hat, das geht auf keine Kuhhaut.*

II „*etwas ist eine unglaubliche Frechheit, Unverschämtheit*“, yaʼni “bu oʻtaketgan surbeklik, bemaʼnilik”

Jumlada kelishi: *Was er sich gestern mir gegenüber erlaubt hat, das geht auf keine Kuhhaut.*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. Klappenbach R. Feste Verbindungen in der deutschen Gegenwartssprache. Beiträge zur Geschichte der deutschen Sprache und Literatur. 82 Band. Sonderband. – Halle(Saale), 1961;
2. Умарходжаев М., О. Аъзамов. Немисча- ўзбекча зооним коипонентли ФБ луғати, – Андижон, 2016, –Б.51.
3. Умарходжаев М. Э., Назаров Қ.Н. Немисча- русча- ўзбекча фразеологик луғат. –Т.: Ўқитувчи.
4. АBBY Lingvo x5, Электронный словарь. Выпуск: 15.0.592.5 Артикул: 1043/2.
5. Вахтийор Менглиев, Махбуба Худойберdiyeva, Оynisa Воymatova. О'zbek tili iboralarining o'quv izohli lug'ati. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2007.
6. Бинович Л.Э. Гришин Н.Н. Немецко- русский фразеологический словарь. 2-е издание. – М. 1975, 656 с.
7. Deutsch- russisches phraseologisches Wörterbuch. L.E. Binowitsch und N.N. Grischin. Verlag russische Sprache. – Moskau, 1975. – S.91.
8. Ismatullayeva, N. (2021, April). Phraseology with zoonymic components of "dragon" and "tiger" in chinese and korean languages. In *Oriental Conferences* (pp. 183-189).

